

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O'QUVCHILARGA) XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLARDA O'RGATISH METODLARI

Xamidova Shahzoda Jamshedovna

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Hozirgi zamon talabiga ko'ra kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillar interfaol usullardan foydalanib o'qitish samarali usul bermoqda, bu borada ko'pgina ilmiy, ilmiy ommabop metodlardan foydalanilmoqda. Ushbu maqolada ayni shu sohadagi o'rganilayotgan ishlar va boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarga samarali metodlarni qo'llash usuli orqali xorijiy tillarni o'rgatish haqida keltirib o'tilgan metodlar to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy metodlar, aqliy faoliyat, interfaol metodlar, o'yinlar.

XXI asr rivojlangan texnologiyalar asrida kichik yoshdagi bolalarga zamonaviy qarashlarga tayanib xorijiy tillarni o'qitishda samarali ilmiy metodlar keng ko'lamda qo'llaniladi. Bu turdagi metodlar bolalarda ongning rivojlanishiga ma'lumotlarni bolaning miyasiga tezroq singdirishga yordam beradi va kichik yoshdagi bolalarda aqliy faoliyatning tezroq va samaraliroq o'sishiga ko'maklashadi shu bilan birga bolaning qiziqishini so'ngdirmagan holda xorijiy tillarni qiziqarli, foydali, unumli metodlardan foydalanib o'rgatish hozirgi zamon talabiga mos keladi.

Metod (yun. "metodos" - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) - voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Shu nuqtai nazardan metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi. [1]

Interfaol metodlardan foydalanishning kichik yoshdagi bolalarga ko'pgina afzal tomonlari mavjud bo'lib bunda bolarning dars jarayonida erkin bo'lishlari o'z fikrlarini aniq, sodda va ravon so'zlay olishlari uchun zamin yaratadi. "Qizil va ko'k metodi" (The method red and blue), "Caterpillar Balloon game" (Kapalak shar o'yini), "Chehralar (smayliklar)" metodi (The method of smiley), "Energizer" metodi kabi metod turlari o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni o'rgatish va shakllantirishga yordam beradi.

“Qizil va ko’k metodi”- bu metod o’z navbatida o’quvchilarga ranglar orqali bog’lab qizil va ko’k rangli kartochkalarda yozilgan harakat nomini ifodalovchi fe’llarning rasmlari tushirilgan kartochkalarni ajratishlari kerak bo’ladi bu ishni bajarish uchun har bir o’quvchiga 30 soniyadan vaqt beriladi ular bu muddat ichida har xil aralash kartochkalar ichidan kerakli harakat fe’llarini topishlari lozim bo’ladi. Eng ko’p ajratgan o’quvchi g’olib hisoblanadi.

“Caterpillar Balloon game” metodi bu (Kapalak shar o’yini) metodi hisoblanib bunda o’quvchilar ikki guruhga bo’linishadi va har bir guruhda 10 tadan o’quvchi qatnashadi bunda har xil rangli sharlardan foydalanib yovvoyi va xonaki hayvonlarning rasmlari tushirilgan sharlarni o’quvchilar juft-juft holatda bo’lib sharni qorin qismlari bilan qisgan holda ushlab sinfnig bir burchagidan boshqa tarafiga tushirib yubormasdan olib borishlari kerak bo’ladi bu ishni bajarish uchun har bir guruhga 1 daqiqadan vaqt beriladi bu muddat ichida ular 12 ta yovvoyi va xonaki hayvonlarning rasmi tushirilgan sharlarni yormasdan o’z vaqtida ajratib olishlari lozim bo’ladi eng ko’p shar to’plagan guruh g’olib hisoblanadi. Bu metodning boshqa metodlardan farqi shundaki, bunda o’quvchilarning tezlik, uddaburonlik, chaqqonlik, sezgirlik va ko’rish qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini kuzatish mumkin bo’ladi.

“Chehralar (smayliklar)” bu (The method of smiley) metodi hisoblanib bunda har xil yuz mimikalarini ifoda etuvchi sifatlar bolalarga smayliklarni ko’rsatish usuli orqali o’rgatiladi. Bunda o’quvchilar 3 guruhga bo’linishadi va sariq rangli qog’ozlardan foydalanib har xil yuz ifodalari xafa, xursand, baxtli, yig’loqi, aqlli, o’ychan, ser harakat, bilimdon, uyatchan, sho’x, chiroyli kabi rasmlarni chizishadi va uni o’qituvchiga taqdim etishadi. O’qituvchi ularni aralashtirib har bir guruhga ko’rsatib chiqadi o’quvchilar shu tariqa yuz mimikalarini ifodalovchi sifatlarni o’rganib olishadi.

“Enerjayer o’yini” bu (Energizer game) metodi bo’lib bunda sinfdagi barcha o’quvchilar saf tortishadi eng oxirida turgan o’quvchiga so’z aytiladi va u o’sha so’zni imo-ishoralar orqali saf bo’ylab ketma-ket aytiladi so’ng eng boshida turgan o’quvchi shu so’zni topishi kerak bo’ladi unga ushbu so’zni topishi uchun 3 marta imkoniyat beriladi, bu so’z 5 xil variant asosida hayvonlar mavzusi (the animals), mevalar mavzusi (fruits), sabzavotlar mavzusi (vegetables), kasblar mavzusi (professions) va oziq-ovqat (food) mavzusiga tegishli bo’ladi. Bu kabi metodni qo’llashning eng asosiy maqsadi o’quvchilarda xorijiy tillarni nafaqat gapirish, ko’rish yoki eshitish yo’llari orqali o’rgatish balki ularda imo-ishoralar orqali o’z fikrlarini namoyon etishlari uchun zamin yaratadigan ko’nikmani ham shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, bu kabi metodlar eshitish qobiliyati sust bo’lgan bolalarga xorijiy tillarni tez va oson, foydali va samarali o’rgatish usuli hisoblanib ularda aqliy salohiyatning o’sishiga va xorijiy tillarni o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Dars mashg'ulotlarini o'rganish davrida o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan turli xildagi rag'batlantirishlar o'tkazilib turilsa maqsadga muvofiq bo'ladi chunki bu usul bolaning xorijiy tillarni tezroq va qiziqarliroq o'rganishiga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda ,dars mashg'ulotlarini qiziqarli,foydali va eng asosiysi hozirgi zamon talabiga moslashtirib o'tish uchun turli xil ko'rgazmali qurollar,o'quv qo'llanmalar,prezintatsiyalar,qiziqarli metodlar,turli xil metodik qo'llanmalar orqali dars o'tkazish o'quvchilarda xorijiy tillarni o'rganishga doir qiziqishlarini ortirishga,fanga oid ma'lumotlarni sodda va aniq usulda qabul qilib olishlari va ularni yaxshiroq eslab qolishlari uchun foydali usullar hisoblanadi.Chet tillarini interfaol usullar yordamida o'rgatish o'quvchilarni bu tilni o'rganishga bo'lgan intilishlarini orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Google.O'zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil.
- 2.<https://youtube.com/watch?v=MxvVboopaXU&feature=shared>.
- 3.<https://youtube.com/watch?v=1DpskplOe44&si=IsV48OOkE7b4ljve>.
- 4.<https://youtube.com/watch?v=RnqOZWYvsk&si=9oJXAmIHkjkYAZ>.
- 5.<https://youtube.com/watch?v=3VK2QycneFk&si=wpGJdyzP8sDxlmlm>.